

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

NOSIROV SOBITJON SOBIRJONOVICH

**TOSHKENT BOTANIKA BOG'IGA INTRODUKSIYA QILINGAN
LONICERA L. (CAPRIFOLIACEAE JUSS.) TURKUMI AYRIM
ISTIQBOLLI TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nosirov Sobitjon Sobirjonovich

Toshkent Botanika bog‘iga introduksiya qilingan *Lonicera* L. (Caprifoliaceae Juss.) turkumi ayrim istiqbolli turlarining bioekologik xususiyatlari3

Носиров Собитжон Собиржонович

Биоэкологические особенности некоторых перспективных видов рода *Lonicera* L. (Caprifoliaceae Juss.), интродуцированных в Ташкентский Ботанический сад21

Nosirov Sobitjon Sobirjonovich

Bioecological features of some promising species of the genus *Lonicera* L. (Caprifoliaceae Juss.) introduced to the Tashkent Botanical Garden39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BOTANIKA INSTITUTI

NOSIROV SOBITJON SOBIRJONOVICH

**TOSHKENT BOTANIKA BOG‘IGA INTRODUKSIYA QILINGAN
LONICERA L. (CAPRIFOLIACEAE JUSS.) TURKUMI AYRIM
ISTIQBOLLI TURLARINING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI**

03.00.05 – Botanika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/B974 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.botany.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximova Nargiza Kamiljanovna
biologiya fanlari nomzodi

Rasmiy opponentlar:

Xamrayeva Dilovar Tolibdjonovna
biologiya fanlari doktori

Baysunov Babir Xidirovich
biologiya fanlari nomzodi dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "21" fevral kuni soat 15³⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "04" fevral kuni tarqatildi.
(2025 yil "04" fevral 2-raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, akademik

U.H. Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

X.F. Shomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda biologik faol moddalarga boy hamda manzarali o'simlik turlarini madaniylashtirish va shaharsozlik an'alariga mos ravishda ko'kalamzorlashtirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga ko'ra, istiqbolli manzarali, tashqi muhit omillariga chidamli daraxt va buta turlarini, shuningdek, tabiiy floramizning noyob va kamayib borayotgan turlarini ilmiy asoslangan holda saqlab qolish usullarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jahonda iqlim o'zgarishiga chidamli hamda istiqbolli manzarali daraxt va buta turlarini ishlab chiqarishga jalb etish hamda yetishtirish yo'llarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda turli iqlim mintaqalarida o'suvchi istiqbolli manzarali va dorivor o'simliklarni introduksiyalash yo'llari hamda urug'idan va vegetativ ko'paytirish usullari ishlab chiqildi. Bu kabi istiqbolli o'simliklar qatoriga MDH mamlakatlarida shaharlarni ko'kalamzorlashtirishga keng jalb etilgan chidamli va yuqori manzarali Caprifoliaceae Juss. oilasining *Lonicera* L. turkumi vakillarini kiritish mumkin. Shu bois *Lonicera* turkumining mahalliy va xorij florasiga mansub istiqbolli turlarining introduksiya sharoitida bioekologik xususiyatlarini asoslash, tashqi muhit omillariga chidamliligini aniqlash hamda ko'paytirishning maqbul usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Hozirda respublikamizda o'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish va biologik xilma-xillikni saqlash, shuningdek, shaharlarni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda amalga oshirilgan dasturiy choratadbirlar asosida manzarali, dorivor daraxt va butalarning assortimenti ko'paytirildi, respublikamizning turli tuproq-iqlim sharoitlariga mos turlar obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish sohalariga joriy etildi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Toshkent shahrini aholiga qulay, ekologik toza va yashash uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lgan hududga aylantirish, ko'kalamzorlashtirish darajasini 30 foizga yetkazish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu o'rinda introduksiya sharoitida Caprifoliaceae Juss. oilasiga mansub *Lonicera* L. turkumi ayrim istiqbolli turlarining bioekologik xususiyatlari, gullash biologiyasi, urug' mahsuldorligini o'rganish hamda ularni ko'paytirishning maqbul usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 1-avgustdagi 211-son "Toshkent Botanika bog'ining O'simlik dunyosi genofondini saqlash va boyitish to'g'risida"gi qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-sentabrdagi PF-3256-son "Istiqbolli va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan o'simlik turlarini introduksiya qilish va iqlimlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish" bo'yicha qarorlarida ham yangi turdagi manzarali o'simliklarni chet

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

ellardan xarid qilish yo‘li bilan ularning ko‘chatlarini yetishtirish yuzasidan respublika mintaqalarida ularning ixtisoslashtirilgan ko‘chatxonalarini tashkillashtirish masalalariga alohida e‘tibor berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son «2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori, 2021-yil 30-dekabrda PF-46-son “*Yashil makon*” umummilliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida *Lonicera* L. turkumi turlarining kimyoviy tarkibi, morfologiyasi, dorivorlik xususiyatlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari bir qator xorijlik olimlar: G. Lanlan et al. (2021), Ch. Murthy et al. (2022), S. Garshasbi et al. (2022), M.E. Seker (2023), Ch. Yang et al. (2023), Ch. Mohammadi et al. (2023) va boshqalar tomonidan olib borilgan va borilmoqda. MDH mamlakatlarida *Lonicera* L. turkumi ayrim turlarining introduksiya sharoitida moslashuvchanligi va chidamliligini V.F. Ivanova (1983, 1989), V.F. Severin (1989), A.K. Skvorsov (2002); Omsk shahrida gullash biologiyasi va organogenezini T.S. Rijkova (1988); Belorussiyaga madaniylashtirish bo‘yicha A.A. Chaxovskiy (1989); fenologiyasi, novdalarining shakllanishini I.B. Popova (2000), S.V. Yakovleva (2003); biokimyoviy tarkibini N.I. Savelyev (2004), T.Ye. Bocharova (2005)lar o‘rganishgan. Respublikamizda *Lonicera* L. turkumi turlarining introduksiyasi va iqlimlashtirish sohasidagi ishlar O‘zR FA Toshkent Botanika bog‘i bir qator olimlari: R.M. Murzova (1966), A.A. Mavjudov va G.V. Maksimova (1975), G.V. Maksimova (1979), P.K. Zakirov (1991), L.N. Ismagilova (1992, 1996), H.I. Shtonda (1996), R.O. Jumabayeva (1996), A.I. Xalmurzayeva (2003)lar tomonidan amalga oshirilib kelingan. Ammo ushbu ma‘lumotlar turkum turlarini introduksiya sharoitida keng miqyosda yetishtirish imkonini bermaydi. Shu boisdan tadqiqot ob‘yektlarining *ex-situ* sharoitida ayrim biologik xususiyatlarini o‘rganish, ochiq grunt hamda *in vitro* usulida ko‘paytirish va yetishtirish usullarini ishlab chiqqan holda foydalanish tarmoqlariga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti huzuridagi akademik F.N. Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog‘ining 2019-2024 yillarga mo‘ljallangan “Dendrologiya laboratoriyasi ekspozitsiyalaridagi daraxt va butalarning raqamli bazasini shakllantirish, yangi turdagi daraxt va butalarni introduksiya qilish” (2021 y.) hamda “Toshkent Botanika bog‘i kolleksiyalaridagi daraxt va butalar introduksiyasi natijalarining tahlili, yangi turdagi daraxt va butalarni introduksiya qilish” (2022 y.) mavzularidagi davlat dasturlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi introduksiya sharoitida *Lonicera* L. turkumi ayrim istiqbolli turlarining bioekologik xususiyatlarini asoslash, ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish uchun ko‘paytirish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Lonicera L. turkumi ayrim istiqbolli (*Lonicera maackii*, *L. tatarica*, *L. korolkowii*) turlarining introduksiya sharoitida o‘sishi va rivojlanishiga ekologik omillarning ta‘sirini o‘rganish;

tadqiqot ob‘yektlarining sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasi hamda urug‘ mahsuldorligini aniqlash;

Lonicera paradoxa ning tabiiy o‘shish sharoitidagi hozirgi holatini kuzatish hamda Toshkent Botanika bog‘iga introduksiya qilish;

turlarni ko‘paytirish usullarini ishlab chiqish va introduksion baholash.

Tadqiqotning ob‘yekti Caprifoliaceae Juss. oilasiga mansub *Lonicera* L. turkumining *Lonicera maackii* (Rupr.) Maxim., *L. tatarica* L., *L. korolkowii* Stapf, *L. paradoxa* Pojark. turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti *Lonicera* L. turkumi ayrim istiqbolli turlarining introduksiyasi, bioekologiyasi, sutkalik va mavsumiy gullash dinamikasi, urug‘ mahsuldorligi hamda ko‘paytirish usullari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada laboratoriya va dala tajribalari, shuningdek, biometrik, fenologik, mikroklonal, introduksion hamda statistik usullardan foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy yangiligi:

ilk bor *Lonicera* turkumi ayrim istiqbolli (*Lonicera maackii*, *L. tatarica*, *L. korolkowii*, *L. paradoxa*) turlarining Toshkent Botanika bog‘i sharoitida o‘sishi va rivojlanishiga ekologik omillarning ta‘siri aniqlangan;

laboratoriya sharoitida turlar urug‘ unuvchanligining eng maqbul haroratlari aniqlangan;

tadqiqot ob‘yektlarining sutkalik va mavsumiy gullash dinamikalari hamda urug‘ mahsuldorligi asoslangan;

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob *Lonicera paradoxa* ning tabiiy o‘shish sharoitida hozirgi holati kuzatilgan hamda ushbu turni mikroklonal usulda ko‘paytirishga erishilgan;

o‘simliklar introduksion baholanib, ko‘paytirish usullari ishlab chiqilgan hamda ulardan Respublikamizning ko‘kalamzorlashtirish sohasida foydalanish uchun tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent Botanika bog‘ida *Lonicera* L. turkumining 18 tur va 2 formadan iborat kolleksiyasi yaratilgan;

o‘simliklarni dala sharoitida generativ (urug‘idan) va vegetativ (qalamchalaridan) ko‘paytirish va yetishtirishning samarali usullari asoslangan;

o‘rganilgan turlarni urug‘idan ekilganda 5-6-yildan, qalamchasidan ko‘paytirilganda esa 3-4-yildan boshlab ikkinchi yarus o‘simliklari sifatida ko‘kalamzorlashtirishda foydalanish mumkinligi isbotlangan;

O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan *Lonicera paradoxa* ni mikroklonal usulda ko‘paytirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqot mobaynida olingan natijalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning yetakchi xorijiy va mahalliy nashrlarda chop etilganligi, ulardan davlat dasturlari doirasida belgilangan vazifalarning bajarilishida foydalanilganligi, tadqiqotlar davomida qo‘llanilgan klassik va zamonaviy usullar asosida olingan natijalarning nazariy ma‘lumotlarga mos kelishi, dissertatsiya tadqiqotining amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Olingan natijalarning ilmiy ahamiyati, ilk bor Toshkent Botanika bog‘i sharoitida *Lonicera* turkumi ayrim istiqbolli turlarining bioekologik xususiyatlaridan o‘sishi va rivojlanishi, gullash dinamikasi va urug‘ mahsuldorligining aniqlanganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga mansub kamyob *Lonicera paradoxa* ning bugungi kundagi holatining asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. Olingan natijalar *Lonicera* turkumining istiqbolli turlarini generativ (urug‘), vegetativ (qalamcha) hamda mikroklonal (*L. paradoxa*) usullarda samarali ko‘paytirish orqali ko‘kalamzorlashtirish sohasida keng foydalanishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Lonicera* L. turkumi ayrim istiqbolli turlarining Toshkent Botanika bog‘i sharoitida introduksiyasi hamda bioekologik xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadqiqot ob‘yektlari sifatida tanlab olingan turlarni Toshkent Botanika bog‘i *ex-situ* sharoitida ko‘paytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Toshkent Botanika bog‘ining Dendrologiya laboratoriyasi faoliyatiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023 yil 13-iyuldagi 04/1255-1479-son ma‘lumotnomasi). Natijada Toshkent Botanika bog‘ida turlarning tirik koleksiyasini yaratish imkonini bergan;

generativ va vegetativ ko‘paytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Toshkent, Farg‘ona va Namangan viloyatlarining Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmalariga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2023 yil 15-dekabrda 03-03/3-8213-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘rganilgan turlarni viloyatlarning mos iqlim sharoitida yalpi ko‘paytirish imkonini bergan;

turkum turlarining fenologiyasi va biometriyasiga doir ma‘lumotlar Toshkent shahar hokimligi Obodonlashtirish bosh boshqarmasi faoliyatiga joriy etilgan (Toshkent shahar Obodonlashtirish bosh boshqarmasining 2023 yil 21-dekabrda 1-13/29594-son ma‘lumotnomasi). Natijada Toshkent shahar yo‘l qatnov yoqalari va bino-inshootlarning atrofiga mos buta turlarini tanlash va ko‘kalamzorlashtirish faoliyati samaradorligini oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "***Lonicera* L. turkumi turlarining o'rganilishi, sistematikasi va areali**" deb nomlangan birinchi bobida turkum turlarini tadqiq qilish bo'yicha O'zbekiston va xorijda olib borilgan qisqacha tadqiqotlar sharhi, adabiyotlar tahlili, shuningdek, turkum turlarining Yer yuzida tarqalishi va sistematikasi, tadqiqot olib borilgan hududning tuproq-iqlim sharoiti, tadqiqot ob'yektlari (1-rasm) va uslublari hamda bugungi kunda Toshkent Botanika bog'ida tashkil etilgan *Lonicera* L. turkumi kolleksiyasidagi mavjud turlar to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot ob'yektlarining introduksiya sharoitida ayrim bioekologik xususiyatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'yektlarining laboratoriya sharoitida urug' unuvchanligi hamda Toshkent Botanika bog'ining introduksiya sharoitida turlarning o'sishi va rivojlanishiga ekologik omillar ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobning birinchi bo'limida laboratoriya sharoitida turli haroratlarda *Lonicera tatarica*, *L. korolkowii*, *L. paradoxa* va *L. maackii* larning urug' unuvchanligi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan. O'rganilgan barcha turlar urug' unuvchanligi uchun optimal harorat +20 +22 °C ekanligi, *Lonicera tatarica*, *L. korolkowii* va *L. maackii* turlarida urug' unuvchanlik 69% dan 91% gacha, faqatgina O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan *Lonicera paradoxa* ning urug' unuvchanligi esa 54% ni tashkil etganligi qayd etilgan.

Bobning "O'sishi va rivojlanishiga ekologik omillar ta'siri" deb nomlangan ikkinchi bo'limida *Lonicera tatarica*, *L. korolkowii*, *L. paradoxa* va *L. maackii* turlarining vegetatsiya davrida o'sib-rivojlanishi, fazalari va ularga zarur bo'lgan foydali haroratlar yig'indisi, shuningdek, o'simliklarning mavsumiy rivojlanishi bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.



Lonicera korolkowii Stapf



Lonicera maackii (Rupr.) Maxim.



Lonicera paradoxa Pojark.



Lonicera tatarica L.


1-rasm. Tadqiqot ob'yektlari

Ushbu bo'limda, shuningdek, o'rganilgan turlarning ikki yillik (2022-2023 yy.) fenospektrlari keltirilgan (2-rasm). Toshkent Botanika bog'i sharoitida 2022-2023 yy. larda *Lonicera tatarica* va *L. korolkowii* da vegetatsiyasining boshlanishi fevral oyining ikkinchi dekadasidan (havo harorti o'rtacha +10 +12 °C, havoning nisbiy namligi 65-75% ni tashkil etganda) kuzatilgan bo'lsa, qolgan ikki tur – *Lonicera paradoxa* va *L. maackii* larda vegetatsiyasining birmuncha kechroq (mart oyining boshi, +15 +16 °C, 50-56%) boshlanishi qayd etildi. Ushbu o'rganilgan turlarning gullash fazasida esa katta farq kuzatilmaganligi, ya'ni barcha turlar deyarli bir vaqtda (aprel oyining birinchi dekadasida) gullash fazasiga o'tganligi qayd etilib, gullash davomiyligi *L. maackii* da 12-21 kun ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, introduksiya sharoitida ushbu turlarda novdalarning jadal o'sishi may oynining birinchi va ikkinchi dekadalarida kuzatilib, urug'larning pishib yetilishi *Lonicera tatarica* va *L. korolkowii* turlarida iyun-iyul oylari, *L. maackii* da esa avgust-sentabr oylariga to'g'ri keldi.

O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga mansub *Lonicera paradoxa* to'g'ridan-to'g'ri tabiiy sharoitdan introduksiya qilinganligi sababli, gullash

fazasiga ikkinchi yildan (2023) o'tganligi, ammo gullarining to'kilib ketganligi bois mevalash fazasiga o'tmaganligi qayd etildi.

Shunday qilib, introdutsentlarning yaxshi o'sib rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy ekologik omillar – havo harorati (+20 +25 °C), nisbiy namlik (50-55%) va yorug'lik (16000-19000 lyuks) ekanligi aniqlandi.





2-rasm. *Lonicera* turkumi turlarining 2022-yilgi (a) va 2023-yilgi (b) fenospektri

Dissertatsiyaning “O‘simliklarning gullash dinamikasi va urug‘ mahsuldorligi” deb nomlangan uchinchi bobida turlarning sutkalik va mavsumiy gullash dinamikalari, gullash jarayonida tashqi muhit omillarining ta'siri hamda urug‘ mahsuldorligi bo'yicha ikki yillik (2022-2023 yy.) ma'lumotlar batafsil tahlil etilgan. Sutkalik gullash dinamikasida eng ko'p (21-48) ochilgan gullar soni soat 14⁰⁰ dan 16⁰⁰ ga to'g'ri kelib, yalpi gullash davrida kuzatildi. Bir dona gulining ochilib turish davomiyligi 6-7 kunni tashkil etdi.

Shuni aytish mumkinki, o'rganilgan turlarning (*Lonicera korolkowii*, *L. tatarica*, *L. maackii*) 2022 va 2023-yillardagi gullash dinamikasi bo'yicha olingan



natijalarga ko'ra, 2022-yilga nisbatan 2023-yilda mart oyi havo iliq bo'lganligi sababli, turlarning Toshkent Botanika bog'i sharoitida gullash fazasi erta boshlandi. O'simliklarning mavsumiy gullash davomiyligi o'rganilganda, eng ko'p (168 ta) ochilgan gullar havoning o'rtacha harorati +19 +29 °C, havoning nisbiy namligi esa 35-50%, soat 14⁰⁰-16⁰⁰ da kuzatilib, gullash jarayoni umumiy 12-21 kunning tashkil etdi. Ikki yil davomida turlarning mavsumiy gullash fazasi o'rganilganda, asosiy ekologik omillar – havo harorati va havoning nisbiy namligi ekanligi aniqlandi. Ya'ni, havo harorati yuqori (+25 +26 °C) bo'lib, havoning nisbiy namligi pasayganda (40-42%), gullash davri kamroq (12-13) davom etishi, yoki aksincha, havo harorati past (+20-21 °C) bo'lib, havoning nisbiy namligi yuqori (48-50%) bo'lganda, gullash davrining uzayishi (14-21) kuzatildi (3-5 rasm).

Lonicera korolkowii




3-rasm. Sutkalik (a) va mavsumiy (b) gullash dinamikasi (2022-2023 yy.)


Lonicera maackii



4-rasm. Sutkalik (a) va mavsumiy gullash dinamikasi (2022-2023 yy.)

Lonicera tatarica





5-rasm. Sutkalik (a) va mavsumiy (b) gullash dinamikasi (2022-2023 yy.)

Mazkur bobda, shuningdek, o'rganilgan turlarning introduksiya sharoitida urug' mahsuldorlik koeffitsiyentlari bo'yicha ham ma'lumotlar keltirilgan (1-3 jadval).

1-jadval

***Lonicera korolkowii* ning 5 ta generativ novdasidagi o'rtacha urug' mahsuldorligi**

№	Bir novdadagi gullar soni	Hosil bo'lgan mevalar soni	Urug' mahsuldorligi, dona		Mahsuldorlik koeffitsiyenti, (%)
			PUM	HUM	
1	266,4±5,03	246,4±3,81	470,8±6,17	424,4±5,32	90,3±1,10
2	288,6±7,43	234,9±5,62	642,5±7,63	551,8±9,80	86,5±0,87
3	183,3±3,08	68,2±1,08	123,6±3,31	98,5±1,30	80,2±0,79
4	260,1±5,16	230,8±4,22	428,2±8,60	384,7±7,91	90,6±1,98
5	195,5±6,78	180,3±2,91	340,3±4,13	292,1±6,71	86,7±1,34
o'rt.	238,8±5,49	192,12±3,52	401,1±5,96	350,3±6,20	86,8±1,21

2-jadval

***Lonicera tatarica* ning urug' mahsuldorligi**

№	Bir novdadagi gullar soni	Hosil bo'lgan mevalar soni	Urug' mahsuldorligi, dona		Mahsuldorlik koeffitsiyenti (%)
			PUM	HUM	
1	702,8±9,02	348,3±7,52	499,3±7,98	416,8±6,03	82,5±1,05
2	581,2±11,50	512,6±8,78	929,5±4,83	824,5±7,27	87,3±0,78
3	226,4±8,93	204,7±5,90	510,6±7,63	408,3±5,76	80,7±1,10
4	358,7±10,04	309,2±6,52	421,1±8,59	372,4±9,06	88,6±1,30
5	427,6±7,43	389,9±10,93	580,8±8,51	509,6±6,54	87,2±0,83
o'rt.	459,34±9,38	352,94±7,93	588,26±7,50	506,32±6,93	85,26±1,01

Lonicera maackii ning urug' mahsuldorligi


№	Bir novdadagi gullar soni	Hosil bo'lgan mevalar soni	Urug' mahsuldorligi, dona		Mahsuldorlik koeffitsiyenti (%)
			PUM	HUM	
1	216,6±5,57	188,4±4,68	361,6±6,07	312,8±3,83	86,6±1,70
2	478,7±2,35	431,7±7,81	855,5±3,76	790,6±5,14	92,8±0,88
3	412,8±5,18	390,2±5,06	741,3±5,18	703,1±2,22	95,9±0,96
4	451,8±7,26	416,9±4,22	789,3±4,12	719,3±3,16	91,4±1,21
5	367,2±3,17	343,6±3,05	617,7±5,23	574,7±4,95	93,1±0,76
o'rt.	385,42±1,30	354,16±4,96	673,08±4,87	620,1±3,86	91,9±1,10

Turlarning jadal o'sib-rivojlanishi, yuqori urug' mahsuldorlikka (85,2–91,4%) ega ekanligi, urug'larining sifat ko'rsatkichlari ham ijobiy bo'lib, hasharotlar bilan zararlanmaganligi, ularning introduksiya sharoitiga to'liq moslashganligidan dalolatdir. Bu esa o'rganilgan turlarni ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishga tavsiya etishda asosiy rol o'ynaydi.

Dissertatsiyaning “**Tabiiy sharoitda *Lonicera paradoxa* Pojark. ning hozirgi holati**” deb nomlangan to'rtinchi bobida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobida (2019) maqomi 1 ga teng, Pomir-Oloydagi juda kamyob, areali ajralgan, relik endem tur – *Lonicera paradoxa* ning tabiiy sharoitdagi holati bo'yicha, ya'ni ushbu turning tarqalishi, o'sishi va rivojlanishi, o'simliklar jamoasida tutgan o'rni hamda urug' mahsuldorligi haqida 3 yillik (2021-2023 yy.) ma'lumotlar keltirilgan.

Lonicera paradoxa O'zbekiston hududida Farg'ona vodiysining Shohimardon daryo havzasi, Yordon qishlog'i Archamozor darasi, Duxobasoyning tepa qismida dengiz sathidan 1900–3200 m gacha balandlikda uchraydi.

Olib borilgan kuzatuvlar asosida shuni ta'kidlash joizki, *Lonicera paradoxa* ning umumiy holati qoniqarsiz bo'lib, antropogen omillar, chorva mollarining boqilishi ta'sirida yosh tuplarining mavjud emasligi – ushbu turning yo'qolib ketish xavfi yuqori ekanligidan darak beradi. *Lonicera paradoxa* mavsumiy rivojlanish maromi bo'yicha bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritmotipga mansub bo'lib, vegetatsiya davomiyligi 170-175 kunni tashkil etdi. Quyidagi rasmda turning uch yillik fenospektri (2021-2023 yy.) keltirilgan (6-rasm).



6-rasm. *Lonicera paradoxa* ning fenospektri (2021–2023 yy.)

Lonicera paradoxa ning tabiiy sharoitda kamayib borayotganligining asosiy sabablari – urug‘ mahsuldorligining pastligi (30,6%) (4-jadval), turning tabiiy o‘sib turgan hududida ko‘plab chorva mollarining boqilishi hamda qiyaliklarda (jarlik) o‘shishi, shuningdek, urug‘lari pishganda yog‘ingarchiliklar natijasida yuvilib ketishi oqibatida yosh tuplarining mavjud emasligidir.

4-jadval

Lonicera paradoxa ning (uchta tupidagi) urug‘ mahsuldorligi

№	Hosil bo‘lgan mevalar soni	Urug‘ mahsuldorligi, dona		Mahsuldorlik koeffitsiyenti, %
		PUM (umumiy)	HUM (to‘q)	
1	74,8±3,36	108,1±3,99	26,4±0,56	24,2±0,77
2	66,1±1,99	83,3±1,75	22,6±0,52	26,5±0,63
3	58,2±2,58	65,2±1,46	26,8±0,48	41,5±0,47
o‘rt.	66,1±2,64	85,5±2,4	25,2±0,52	30,6±0,62

Lonicera paradoxa qariyotgan generativ yoshda bo‘lganligi sababli, tabiiyki, bu davrda o‘simliklarda urug‘ mahsuldorligi sezilarli darajada past (30,6%) bo‘lganligi kuzatildi. Tabiiy sharoitda ushbu turning yosh tuplarining mavjud emasligi hamda katta yoshdagi tuplarining kam sonli ekanligi (25-27 ta) sababli, kelgusida ushbu tur o‘sib turgan hududni qat‘iy muhofazaga olish choralari amalga oshirish zarur.

Mazkur bobda, shuningdek, vegetatsiyasining boshlanish davrida *Lonicera paradoxa* ning ikkita tupini sanitar kesish bo‘yicha ham ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu tadbir o‘simlikning yaxshi o‘shishi, yangi novdalarining shakllanishi hamda urug‘ mahsuldorligini oshirishga yordam beradi.

Tadqiqotlarimiz davomida sanitar ishlov berilmagan va ishlov berilgan *Lonicera paradoxa* tuplarining o‘shishi va rivojlanishi bir-biridan farqlanganligi kuzatildi (5-jadval).

5-jadval

Sanitar ishlov berilmagan (tabiiy holdagi) va ishlov berilgan *L. paradoxaning* o‘shishi va rivojlanishi

1	Novdalarining o‘shishi (oylar)	aprel	may	iyun	iyul	avgust	sentabr
2	Havo harorati, °C	17	22,7	26,8	29,6	27	22,4
3	Havoning nisbiy namligi, %	56	46	37	33	37	39
4	Sanitar ishlov berilmagan novdalarining o‘shishi, sm	2,4±0,30	3±0,27	5,1±0,36	1,17±0,13	0	0
5	Sanitar ishlov berilgan novdalarining o‘shishi, sm	4,1±0,27	6,2±0,30	10,0±0,32	3,2±0,34	0,52±0,05	0

Kuzatishlar davomida *Lonicera paradoxa* ning sentabr oyida vegetatsiya davri tugaganligi va bir yil davomida sanitar ishlov berilgan tuplarida novdalari o‘rtacha 24,02±1,28 sm gacha o‘sgan bo‘lib, ishlov berilmagan tuplarida esa o‘rtacha 11,67±1,06 sm ni tashkil etdi.

Kuzatishlar davomida *Lonicera paradoxa* ning sentabr oyida vegetatsiya davri tugaganligi va bir yil davomida sanitar ishlov berilgan tuplarida novdalari o'rtacha $24,02 \pm 1,28$ sm gacha o'sgan bo'lib, ishlov berilmagan tuplarida esa o'rtacha $11,67 \pm 1,06$ sm ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“O'simliklarni ko'paytirish usullari”** deb nomlangan beshinchi bobida Toshkent Botanika bog'i sharoitida o'rganilgan turlarni urug'idan va vegetativ (qalamchalari orqali) hamda kamyob tur – *Lonicera paradoxa* ni mikroklonal usulda ko'paytirish, turlarni introduksion baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Lonicera tatarica, *L. korolkowii* va *L. maackii* kuzgi va bahorgi generativ ko'paytirish uchun tabiiy va introduksiya sharoitida pishib yetilgan urug'larini ekishga tayyorlandi. Urug'lar 1×1 maxsus yarim soya joyda tayyorlangan maydonchalarga 1-1,5 sm gacha bo'lgan chuqurliklarda ekildi. Ekilgan urug'larning yaxshi unib chiqishi va namligini bir me'yorda saqlab turish maqsadida ustki qismi mulchalandi.

O'simliklarni ko'paytirish uchun quyidagi tadbirlar tavsiya etiladi: yerni kech kuzda (noyabr) 25-30 sm chuqurlikda shudgorlash yaxshi samara beradi. Shudgorlangan yer kuzgi, qishki va bahorgi namlikni shimib oladi va begona o'simliklarning poya va ildizlari chirishi hisobiga organik o'g'itga aylanadi, yer organik o'g'itlar bilan boyiydi. Eng muhim agrotexnik usullardan biri – o'rganilayotgan o'simliklarning ekish muddatlarini to'g'ri aniqlashdir. Yana muhim tadbirlardan biri – urug'larni ekish chuqurligi 1,5-2 sm hisoblanadi. Urug'lar qator oralig'i 5-7 sm kenglikda egat olinib ekiladi. Urug'larning ekish me'yori ham muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Urug'lar mayda bo'lib, 1000 dona urug'ning o'rtacha og'irligi 1.3-2 gr gacha bo'lsa, sifatli urug' hisoblanadi. O'simliklarni parvarishlash murakkab emas. Ekilgan turlarni dastlabki 2 oy mobaynida begona o'tlardan tozalab turish kerak. O'simliklarni vegetatsiya davomida 15-16 marta sug'orish maqsadga muvofiqdir.

O'simliklarning bir tupida hosil bo'lgan urug'lar bir paytning o'zida pishmaydi, ya'ni har bir tur biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pishib yetila boshlaydi. Urug'lar to'liq rangga kirgandan so'ng terib olinishi kerak. O'simliklar urug'larining pishishi turli muddatda turlicha bo'lib, jumladan, *Lonicera tatarica* va *L. korolkowii* turlarida iyun oyining o'rtalaridan pishsa, *Lonicera maackii* da avgust oyining oxirida pishdi. Yuqoridagi turlarning barchasida Toshkent Botanika bog'i sharoitida urug'larining pishishi iyun oyining o'rtalaridan boshlanib, sentabr oyigacha davom etadi. Shu boisdan, urug'lar o'z vaqtida terib olinmasa, to'kilib ketishi mumkin.

Mazkur bobda *Lonicera tatarica*, *L. korolkowii*, *L. maackii* va *L. paradoxa* larning dala sharoitida urug' unuvchanligi haqida ma'lumotlar batafsil keltirilgan. Tadqiqotlar natijasida bahorda ekilgan *L. korolkowii* urug'larining jami 80%i unib chiqqanligi va ularning vegetatsiya davri oxirida 65-70% gacha saqlanib qolganligi aniqlandi. *Lonicera tatarica* urug'larini terib olingandan so'ng, maxsus muzlatgichda $-3 -5$ °C gacha saqlab, bahorda (mart) ekilganda, urug' unuvchanligi yuqori (62%) ekanligi kuzatildi. Ushbu tur yuqori manzarali va istiqbolli

hisoblanib, uni unumdor va shag'alli tuproqlarga, quyoshli hamda yarimsoya joylarga ekish tavsiya etiladi. Shuningdek, bahorda ekilgan *Lonicera maackii* urug'larining unuvchanligi (80%) kuzda ekilgan urug' unuvchanligiga (72%) qaraganda biroz yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganligi qayd etildi. *Lonicera paradoxa* ning 100 dona urug'idan esa jami 27%i unib chiqqanligi va unib chiqqan urug'larning vegetatsiya oxirigacha 4-5%igina saqlanib qolganligi qayd etildi.

Introduksiya sharoitida o'rganilayotgan butalarni vegetativ ko'paytirishning afzalligi – tez o'sib rivojlanishi, urug'idan ekilgan butalarga qaraganda qalamchalardan yetishtirilgan butalardan qisqa fursatlarda tirik kolleksiyalar yaratish hamda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish maqsadida foydalanish imkonini beradi. Tanlab olingan turlarni (*Lonicera korolkowii*, *L. tatarica*, *L. maackii*, *L. paradoxa*) vegetativ usulda ko'paytirish bo'yicha tajribalarni olib borishda ochiq dala sharoitida bir yillik yog'ochlashgan novdalaridan qalamchalar tayyorlandi. Vegetativ ko'paytirishning sifatli samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida ildiz oldiruvchi **kornevin** va **geteroauksin** stimulyatorlari hamda **nazorat** – oddiy suvdan foydalanilib, 10-12 soat davomida ishlov berildi hamda *Lonicera* turkumi turlari kolleksiyasining tajriba uchastkasida maxsus tayyorlangan maydonchaga qo'yildi. Qalamchalarni qo'yishdan oldin maydonchani pastki qismiga avval 10-12 sm qalinlikda o'simliklarning chirindisi va uning ustidan 12-14 sm qalinlikda toza daryo qumidan solinib, qalamchalarni qo'yish uchun tayyor holatga keltirildi. Qalamchalarni ekish chuqurligi 4-6 sm, qator oralari esa 5x7 sm ni tashkil etdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, vegetativ ko'paytirishda eng maqbul bahorgi va yozgi mavsumlarda Kornevin stimulyatoridan ($62,04 \pm 0,68$ – $90,04 \pm 0,52\%$) foydalanilgan holda amalga oshirish tavsiya etiladi. Vegetativ usulda ko'paytirilgan o'simliklar 3-4-yildan gullash fazasiga o'tadi.

Mazkur bobda O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga mansub kamyob tur – *Lonicera paradoxa* ni mikroklonal (*in vitro*) usulda ko'paytirish bo'yicha ham qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. *L. paradoxa* kallus to'qimalarini o'stirish uchun ozuqa muhitlariga fitoregulyatorlarning ta'siri o'rganildi. *Lonicera paradoxa* ni *in vitro* usulida ko'paytirishda – MS ozuqa muhitiga BAP 2.0 mg/l va IBA 0.1 mg/l aralashirilgan holatda ishlatilganda, kurtaklarining bo'rtib chiqishi 6 kun davom etib, o'simliklarning to'liq o'sib-rivojlanishi 30-kundan boshlandi va 5 donagacha shoxlanib, uzunligi $4,31 \pm 0,07$ sm ga yetdi.

DKW ozuqa muhitiga MMT 1.5 mg/l va IBA 0.1 mg/l miqdorda qo'shib ishlatilganda esa, eksplantlar 5 kun ichida bo'rtib chiqqanligi aniqlandi. O'simlik o'sib-rivojlanishdan 22 kun o'tib to'xtadi. Kurtaklarning shoxlanishi 6 donani, hosil bo'lgan nihollarning uzunligi esa $3,47 \pm 0,03$ sm ni tashkil etganligi qayd etildi.

Ushbu turning o'sishi va rivojlanishi yuqoridagi usullarga qaraganda, QL ozuqa muhitiga TDZ 1.5 mg/l va IBA 0.1 mg/l miqdordagi fitoregulyatorlar ta'sir ettirilgandagi usulning eng maqbul ekanligi, ya'ni kurtaklarning bo'rtishi 9-kundan boshlanganligi, o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi 28-kundan to'xtab, bu vaqtda shakllangan novdalar soni 9 ta ni tashkil qilib, uzunligi $4,43 \pm 0,04$ sm gacha

o‘sganligidir.

Dissertatsiyaning mazkur bobida, shuningdek, tadqiqot obyektlarini introduksion baholash bo‘yicha ham ma‘lumotlar keltirilgan. *Lonicera* turlarini (*Lonicera korolkowii*, *L. tatarica*, *L. maackii*, *L. paradoxa*) introduksion baholashda P.I. Lapin, S.V. Sidneva (1973) lar tomonidan ishlab chiqilgan metodga ko‘ra, 9 ta ko‘rsatkichlar asosida, 2 dan 7 tagacha bo‘lgan mezonlar asos qilib olingan. Introdutsentlar 100 ballik shkala asosida 6 ta guruhga ajratilgan: I – to‘liq istiqbolli (91-100), II – istiqbolli (76-90), III – kamroq istiqbolli (61-75), IV – kam istiqbolli (41-60), V – istiqbolli emas (21-40), VI – umuman yaroqsiz (5-20). Toshkent Botanika bog‘iga introduksiya qilingan *Lonicera* turkumi 18 turi va 2 ta formadan istiqbolli hisoblangan o‘simliklarni ajratib olishda yuqorida ko‘rsatilgan introduksion shkala asosida baholandi va tanlab olingan 3 ta (*Lonicera korolkowii*, *L. tatarica*, *L. maackii*) tur 87 balldan 92 ballgacha baholanib, Toshkent shahri uchun yuqori istiqbolli ekanligi qayd etildi. Faqatgina kamyob *Lonicera paradoxa* 50 ballga ega bo‘lib, bu ko‘rsatkich ushbu turning tabiiy o‘sib turgan tupidan introduksiya qilinganligi hamda olib kelingan tupi taxminan 14-15 yoshda bo‘lganligi sababli ham introduksiya sharoitida kam istiqbolli ekanligi bilan izohlanadi.

Shunday qilib, o‘rganilgan turlar vegetativ usulda ko‘paytirilganda, 3-4-yildan boshlab shaharlarni ko‘kalamzorlashtirishda ikkinchi yarus o‘simliklari sifatida hamda o‘rmonzorlar yaratishda foydalanish mumkinligi isbotlandi.

XULOSALAR

“Toshkent Botanika bog‘iga introduksiya qilingan *Lonicera* L. (Caprifoliaceae Juss.) turkumi ayrim istiqbolli turlarining bioekologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Ilk bor Toshkent Botanika bog‘iga avvaldan mavjud *Lonicera* 9 ta turiga qo‘shimcha yangi 10 tur va 1 ta formasini olib kelish orqali turkumning 18 ta tur va 2 ta formadan iborat kolleksiyasi yaratildi.

2. *Lonicera tatarica*, *L. korolkowii* va *L. maackii* larning laboratoriya sharoitida urug‘ unuvchanligi 69-91%, *L. paradoxa* da esa 54% ni tashkil etib, optimal harorat +20 +22 °C ekanligi aniqlandi.

3. O‘rganilgan o‘simliklarning yillik o‘sish davri o‘rtacha 210-240 kunni tashkil etib, bir mavsumda turlarning o‘sib rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan foydali haroratlar yig‘indisi +5200 +6000 °C ga teng ekanligi aniqlandi.

4. Turlarning mavsumiy gullash fazasida asosiy ekologik omillar – havo harorati va havoning nisbiy namligi ekanligi aniqlanib, foydali haroratlar yig‘indisi +355 +399 °C bo‘lib, havoning nisbiy namligi pasayganda (40-45%), gullash davri kamroq davom etishi, yoki aksincha, havo harorati past bo‘lib, havoning nisbiy namligi yuqori (55-60%) bo‘lganda, gullash davrining uzoq davom etishi qayd etildi.

5. *Lonicera tatarica*, *L. korolkowii* va *L. maackii* larning yuqori haqiqiy urug‘ mahsuldorlikka ega bo‘lganligi potentsial urug‘ mahsuldorligining ham yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Tadqiqot ob‘yektlarining introduksiya sharoitida yuqori (85,2-91,4%) urug‘ mahsuldorlikka ega bo‘lganligi – ularning introduksiya sharoitiga yaxshi moslashib, kelgusida saqlab qolish hamda generativ usulda yalpi ko‘paytirish imkoni mavjudligini ko‘rsatadi.

6. *Lonicera paradoxa* mavsumiy rivojlanish maromi bo‘yicha bahorgi-yozgi-kuzgi fenoritmotipga mansub ekanligi, dala sharoitida urug‘ unuvchanligi 27%, ammo saqlanib qolinmasligi, *in vitro* usulida esa ildiz olgan eksplantlarning 30% gacha saqlanib qolishi – kamyob turni mikroklonal usulda ko‘paytirish orqali saqlab qolish imkoni mavjudligini ko‘rsatadi.

7. Ochiq grunt sharoitida vegetativ usulda ko‘paytirilganda, qalamchalarning 62-90% gacha ildiz olishida Kornevin stimulyatorining samarali ekanligi, dala sharoitida urug‘ unuvchanligi kuzda 59 -72 %, bahorda esa 27-80% gacha bo‘lib, optimal ekish muddati – mart oyining 3 dekadasi ekanligi aniqlandi. Vegetativ usulda ko‘paytirilganda 3-4-yildan, generativ usulda esa 5-6-yildan boshlab ko‘kalamzorlashtirishda va o‘rmonzorlar barpo etishda keng foydalanish mumkinligi isbotlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.В.39.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ БОТАНИКИ**

ИНСТИТУТ БОТАНИКИ

НОСИРОВ СОБИТЖОН СОБИРЖОНОВИЧ

**БИОЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ НЕКОТОРЫХ
ПЕРСПЕКТИВНЫХ ВИДОВ РОДА *LONICERA* L. (CAPRIFOLIACEAE
JUSS.), ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ В ТАШКЕНТСКИЙ
БОТАНИЧЕСКИЙ САД**

03.00.05 – Ботаника

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером В2023.3.PhD/B974

Диссертация выполнена в Институте ботаники.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.botany.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Рахимова Наргиза Камилжановна
кандидат биологических наук

Официальные опоненты:

Хамраева Диловар Толибджонова
доктор биологических наук

Байсунов Бабир Хидирович
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится “21” февраля 2025 года в 15³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.39.01 при Институте ботаники (Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Актовый зал Института ботаники. Тел.: (+99871) 262-79-38, e-mail: botany@academy.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института ботаники (зарегистрировано за №51). Адрес: 100125, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, дом 32. Тел.: (+99871) 262-37-95.

Автореферат диссертации разослан “04” февраля 2025 года.
(реестр протокола рассылки №2 от “04” февраля 2025 года).

К.Ш. Тожибаев

Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.б.н., академик

У.Х. Кодиров

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
PhD, старший научный сотрудник

Х.Ф. Шомуродов

Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, д.б.н., ведущий научный сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире все более важным становится культивирование декоративных видов растений, богатых биологически активными веществами, и озеленение в соответствии с традициями городского планирования. Соответственно, одним из актуальных вопросов является разработка на научной основе методов сохранения перспективных декоративных, древесных и кустарниковых пород, устойчивых к внешним факторам окружающей среды, а также редких и исчезающих видов природной флоры.

В мире большое внимание уделяется привлечению к воспроизводству и совершенствованию способов выращивания перспективных видов деревьев и кустарников, устойчивых к изменению климата. В этом отношении разработаны способы интродукции, также семенного и вегетативного размножения перспективных декоративных и лекарственных растений, произрастающих в различных климатических зонах. К числу таких перспективных растений относятся устойчивые и высокодекоративные представители рода *Lonicera* L. семейства Caprifoliaceae Juss., широко используемые в озеленении городов в странах СНГ. В связи с этим определение устойчивости к факторам внешней среды перспективных видов, принадлежащих к местной и зарубежной флоре, в условиях интродукции, а также разработка оптимальных способов их размножения и выращивания имеет важное значение.

В настоящее время в нашей республике особое внимание уделяется охране объектов растительного мира, их рациональному использованию и сохранению биоразнообразия, а также благоустройству и озеленению городов. На основе программных мероприятий, реализуемых в данном направлении, увеличен ассортимент декоративных, лекарственных деревьев и кустарников, в сферах озеленения и благоустройства внедрены виды, подходящие для различных почвенно-климатических условий республики. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены важные задачи по “превращению города Ташкента в комфортную для населения, экологически чистую зону, имеющую все условия для проживания, доведение уровня его озеленения до 30 процентов”¹. В связи с этим, важное научное и практическое значение имеет изучение биоэкологических особенностей, биологии цветения, семенной продуктивности некоторых перспективных видов рода *Lonicera* L. семейства Caprifoliaceae, и разработка оптимальных способов их размножения.

В Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 211 «О сохранении и обогащении генофонда растительного мира Ташкентского Ботанического сада» от 1 августа 2014 года; Указе Президента Республики Узбекистан УП-3256 «Разработка теоретических основ

¹ Указ Президента Республики Узбекистан №60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.

интродукции и акклиматизации видов растений, имеющих перспективное и хозяйственное значение» от 4 сентября 2017 г., особое внимание уделено вопросам организации специализированных питомников декоративных растений в регионах республики для выращивания их саженцев путем приобретения новых видов декоративных растений из-за рубежа.

